

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA SHANXAY HAMKORLIK
TASHKILOTI O'RTASIDAGI ALOQALAR.**

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.009>

*Musayev Diyorjon
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va SHHT o'rtasidagi aloqalar, O'zbekistonning SHHT ga a'zo bo'lishi, diplomatik aloqalar, qolaversa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davrida hamkorlikning yangi bosqichi, Samarqand sammiti va undan kutilgan natijalar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: „Shanxay beshligi“, Islom Karimov, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mintaqaviy Xavfsizlik, Shavkat Mirziyoyev, Samarqand sammiti.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются отношения между Республикой Узбекистан и Шанхайской организацией сотрудничества (ШОС), включая процесс вступления Узбекистана в организацию и развитие дипломатических связей. Также анализируется новый этап сотрудничества в период президентства Шавката Мирзиёева, Самаркандский саммит и ожидаемые от него результаты.

Ключевые слова: «Шанхайская пятёрка», Ислам Каримов, Шанхайская организация сотрудничества, региональная безопасность, Шавкат Мирзиёев, Самаркандский саммит.

Annotation: This article examines the relations between the Republic of Uzbekistan and the Shanghai Cooperation Organization (SCO), including Uzbekistan's accession to the organization and the development of diplomatic ties. It also analyzes the new stage of cooperation during the presidency of Shavkat Mirziyoyev, as well as the Samarkand Summit and its expected outcomes.

Keywords: “Shanghai Five,” Islam Karimov, Shanghai Cooperation Organization, regional security, Shavkat Mirziyoyev, Samarkand Summit.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'zining tashqi siyosiy faoliyati va yo'nalishlarini belgilab oldi. Xususan O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishi uchun global miqyosda hamkorlik xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va ko'p tomonlama diplomatik munosabatlarga alohida e'tibor qaratdi. Ayniqsa O'zbekistonning SHHT ga a'zo bo'lib kirishi natijasida keng aloqalar yo'lga qo'yildi. Avvalambor O'zbekiston bu tashkilotga

kirishi orqali mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash va qolaversa savdo -iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish uchun ham bu tashkilotga a'zo bo'lishi juda muhim edi. Qolaversa O'zbekiston dengizga chiqish imkoniyati cheklangan oz sonli davlatlardan biri hisoblanadi. Eng yaqin dengiz hududi Hind okeani ekanligini e'tiborga olsak, u yerga chiqish uchun Afg'oniston yoki Eron hududidan o'tishi kerak. Bu davlatlarda ayniqsa Tolibon hukumati Afg'onistonda hokimiyatni qo'lga olgan bo'lsada vaziyat yaxshi emas. Bunga o'z qo'shnisi Pokiston bilan bo'layotgan sovuq munosabatlardan ham bilish mumkin. Shuning uchun ham O'zbekistonning ShHT bilan aloqlari iqtisodiy, xavfsizlik va boshqa ko'plab sohalar uchun juda muhim hisoblanadi. Bugungi kunda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ochiq va o'ziga xos siyosat tufayli nafaqat o'z qo'shnilarimiz balki Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya, Turkiya kabi rivojlangan davlatlar bilan munosabatlar tobora yaxshilanib bormoqda. Yangi O'zbekiston Respublikasi va ShHT o'rtasidagi aloqalarda ham so'nggi yillarda ko'plab sohalarida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa Savdo - iqtisodiy, ilm-fan va texnologiya, raqamli iqtisodiyot kabi sohalarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar bilan bo'lgan munosabatlar ham ancha yaxshilanib bormoqda. Ayniqsa bu davlatlar qadim zamonlardan beri bir biri bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan bu davlatlar olis o'tmishdan beri Xitoy, Hindiston, Eron kabi davlatlar bilan yaxshi savdo aloqalari yo'lga qo'yilganligini ham bilamiz. Endi bugungi kunda kelib esa bu davlatlar o'rtasida aloqalar tobora yaxshilanib bormoqda va bu jarayonda dunyoda o'z nufuzini oshirishga intilayotgan Yangi O'zbekiston ham Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan munosabatlarida yangi pog'onaga ko'tarilib bormoqda. Qolaversa O'zbekiston o'zining tashqi siyosiy konsepsiyasi asosida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan aloqalarni o'rnatgan.

<<1996-yil Shanxayda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida chegara hududlari bo'yicha harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash bilan bog'liq shartnoma (1996-yil 26 aprel) imzolanishi natijasida «Shanxay beshligi» vujudga kelgan edi. 1997–1999-yillarda Moskva, Almati, Bishkekda bo'lib o'tgan sammitlarda «Shanxay beshligi»ning holati yanada mustahkamlanib, o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. 2000-yil Dushanbeda O'zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2001 yilda Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'ldi. Unda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida»gi Bayonotni imzoladi. O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – SHHT», deb o'zgartirildi. Sammit yakunida «SHHTni tuzish to'g'risida»gi deklaratsiya hamda «Terrorchilik, ayrimachilik va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida Shanxay

konvensiyasi» imzolandi. 2002-yil SHHTga a'zo mamlakatlar rahbarlarining navbatdagi Sankt–Peterburg sammitida uchta hujjat: SHHTga a'zo davlatlar rahbarlarining deklaratsiyasi, SHHT Xartiyasi, SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (MATT) haqidagi Bitim imzolangan. 2003-yil Moskvada bo'lib o'tgan sammitda SHHT oliy organlari haqidagi Nizomlar tasdiqlandi va tashkilotning gerbi, bayrog'i qabul qilinadi. 2003-yil SHHTning Pekin sammitida «SHHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi» qabul qilindi. 2004-yil SHHTning Toshkent sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. 2005 yil mamlakat rahbarlari kengashib, uchta Osiyo mamlakati Hindiston, Eron va Pokistonga kuzatuvchi maqomi berilishi to'g'risida qaror qabul qilindi³⁰

ASOSIY QISM

Bundan tashqari bu tashkilotga O'zbekistonning a'zo bo'lish jarayonida Islom Karimov o'zining asarlari va ma'ruzalarida ham muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan:» *Besh mamlakat rahbarlarining birinchi uchrashuvi Shanxayda bo'lgani chuqur ramziy ma'noga ega. Negaki, nazarimda, bugun ayni shu yerda dunyo siyosiy tarixiga kiradigan muhim xalqaro voqea ro'y bermoqda — yangi mintaqaviy tuzilma — Shanxay hamkorlik tashkilotiga asos solinmoqda.*

O'zbekiston mazkur forumning faoliyatini yuqori baholaydi. U o'zining tadrijiy rivojlanish jarayonida faqat chegaragagina oid masalalarni yechish bilan shug'ullanadigan guruhdan, diqqat markazida xavfsizlik va barqarorlik, iqtisodiy va boshqa turdagi hamkorlik masalalari turgan tashkilotgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Biz Shanxay hamkorlik tashkilotini tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, birinchi galda, xalqaro terror, diniy ekstremizm, bosqinchi ayirmachilik va narkobiznes kabi mintaqaviy va dunyoviy xavfsizlikka tahdid soladigan xavf-xatarga qarshi turishda ochiq, o'zaro foydali sheriklik va ko'p tomonlama hamkorlikka qaratilgan ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmi, deb bilamiz.

*Bugun Shanxayda nuqtai nazari va siyosati Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan davlatlar vakillari yig'ilgani alohida qoniqish hissini uyg'otadi.*³¹

^{30 30} O'zbekistonning eng yangi tarixi (Bakalavriat bosqichi talabalari uchun) darslik "bookmany print" TOSHKENT – 2023. 207-bet.

³¹³¹ Islom Karimov Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz 9-jild. Toshkent«O'zbekiston»2001-yil.231-bet.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentimiz davrida a'zo bo'lib, keng ko'lamli diplomatic aloqalar qo'yilganini bilamiz. BU tashriflar natijasida ko'p tomonlama shartnomalar imzolangan ham benihoya katta yutuqlardir. So'nggi yillarda ham O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan keng ko'lamli aloqalarni yo'lga qo'ydi va buning natijasida ko'plar sohalarda hamkorlik qilish imkoniyati tug'ildi. Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan yuritilayotgan ochiq siyosat natijasida O'zbekistonning bu tashkilot bilan aloqalari rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida bugungi xalqaro munosabatlarda Shanxay hamkorlik tashkilotining roli oshib borayotganini ta'kidlab, bu sammitda (2021-yil, Dushanbe) Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu tashkilotning nufuzli tashkilot ekanligini ta'kidlab, jahonda har qanday soha bo'yicha aloqalarni olib borayotganligini aytib o'tgan edi: "O'tgan davrda ShHT xalqaro siyosatning muhim subyektiga aylandi, nufuzli xalqaro tuzilmalar qatorida munosib o'rin egalladi. "Shanxay ruhi" tamoyillari asosida mintaqaviy sheriklik mustahkamlanib bormoqda. Yangi xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi umumiy salohiyat ortib bormoqda, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorligimiz kengaymoqda",³² – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Xo'sh bu tashkilot nima uchun juda ham muhim? Birinchidan davlatlar o'rtasida yaxshi qo'shnichilik va ular o'rtasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash; ikkinchidan esa davlatlar o'rtasida aloqalar; uchinchidan iqtisodiy, siyosiy, ilm-fan, texnika va texnologiya kabi sohalarda bu tashkilot bilan O'zbekiston keng ko'lamli aloqalar qilayapti. Shu boisdan ham Prezidentimiz tomonidan ko'plab takliflar bildirilayapti.

O'zbekiston bu tashkilot doirasida xalqaro maydonda o'z o'rnini egallash uchun qanday ishlarni amalga oshirmoqda? Aalbatta, yurtimizda so'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan keng ko'lamli tashqi siyosat natijasida bizning mamlakatimizning ham xalqaro maydonda o'z o'rnini topayotganimiz ham bejiz emas. Shu o'rinda O'zbekiston va Shanxay Hamkorlik aloqalari doirasida ham yaxshi natijalarga erishilib, bu borada Prezidentimiz tomonidan yaxshi takliflar berilyapti. Xususan, dunyo bo'yicha yechilmay qolayotgan Afg'oniston muammosidan tashqari, Orol muammosini ham BMT va ShHT sammitlari va yig'ilishlarida bu muammoni yechish uchun faqat O'zbekiston hukumatini emas, qo'shni Markaziy Osiyo respublikalaridan tashqari xalqaro hamjamiyatni ham bu masalalarga jalb etayotganligini aytib o'tishimiz lozim. Haqiqatdan ham, Orol muammosi bu faqat mintaqa uchun emas balki global muammo ekanligini va shuning uchun ham dunyo mamlakatlarini ushbu masalaga e'tibor berishiga jalb etish maqsadida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan ham qator hamkorlik dasturlari ilgari

³² <https://daryo.uz/2021/09/17/shavkat-mirziyoyev-shht-majlisida-kibermakondagi-tahdidlarga-qarshi-axborot-xavfsizligi-sohasidagi-ekspertlar-forumini-tasis-etishni-ilgari-surdi/>

surilmoqda. Xususan, 2022-yilda Samarqandda bo'lib o'tgan ShHT ning yig'ilishida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Biz o'z tarkibida siyosatchilarimiz, jamoat arboblari, olimlar va ekspert-ekologlar, biznes vakillarimizni birlashtira oladigan SHHT Iqlim kengashini tuzishni taklif qilamiz",⁻³³ deb ta'kidlashi bejiz emas edi. Chunki bugungi kunda siyosiy muammolardan tashqari jahonda insoniyat uchun katta xavflardan biri sanalgan Iqlim o'zgarishi jarayoni kechmoqda. Shuning uchun ham bu muammolarni bartaraf etish yuzasidan Shavkat Mirziyoyev iqlim o'zgarishi, cho'llanishga qarshi kurash va Orol muammosi haqida bu sammitda aytib o'tgan edi. Mana shunday muammolarni hal etishda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan hamkorlik aloqalarini olib borishimiz lozim.

Bundan tashqari, Xitoy-Markaziy Osiyo tabiiy gaz quvuri va Xitoy-Qozog'iston va Xitoy-Rossiya xom neft quvurlari qurib bitkazilganligini va foydalanishga topshirilganligini aytishimiz zarur. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlari bilan aloqalar natijasi o'laroq, Xitoy-Tojikiston avtomagistrali va Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishi rejalashtirilib, uning ko'lemi kengayib bormoqda. Shuningdek, Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo'lagi va Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi ko'p tomonlama hamkorlik uchun yangi kanallar qurilishini rag'batlantirmoqda.

MUHOKAMA

Shanxay hamkorlik tashkilotining (ShHT) vujudga kelishi va uning tadrijiy rivojlanishi Markaziy Osiyo mintaqasining global geosiyosatdagi o'rnini tubdan o'zgartirdi. O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni va undagi faoliyati shunchaki diplomatik ishtirok emas, balki chuqur milliy manfaatlariga asoslangan strategik tanlovdir. Birinchi Prezident Islom Karimovning asarlarida qayd etilganidek, ShHTning tashkil topishi "dunyo siyosiy tarixiga kiradigan muhim xalqaro voqea" bo'ldi. Bu davrda O'zbekiston tashkilotni nafaqat chegara muammolarini hal qiluvchi guruh, balki mintaqaviy xavfsizlikning ko'p tomonlama mexanizmi sifatida shakllantirishga intildi. Muhokama markazida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonning sa'y-harakatlari bilan ShHT "uch yovuz kuch" — terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashning xalqaro maydondagi eng samarali platformasiga aylandi.

Vaqt o'tishi bilan tashkilotning diqqat markazi faqat xavfsizlik masalalaridan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik hamkorlik sari kengayib bordi. Islom Karimov davrida qo'yilgan mustahkam poydevor bugun Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yuritilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat orqali yangi bosqichga ko'tarildi. 2021-yilgi Dushanbe sammitida qayd etilganidek, ShHT endilikda xalqaro siyosatning nufuzli subyektiga aylandi. Bu jarayonda O'zbekistonning roli "passiv a'zo"dan "tashabbuskor yetakchi" darajasiga o'sdi. Bugungi muhokamalarda O'zbekiston ilgari surayotgan tashabbuslar nafaqat milliy, balki butun ShHT makonidagi barqaror rivojlanishga xizmat qilmoqda.

^{33 33} [https://oyina.uz/uz/posts/9992?page=2\(08.04.2026-yil.14:55\)](https://oyina.uz/uz/posts/9992?page=2(08.04.2026-yil.14:55))

Xususan, transport-logistika sohasidagi loyihalar, masalan, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishi, mintaqaning tranzit salohiyatini keskin oshirishga va "land-locked" (dengizga chiqish imkoniyati yo'q) holatidan chiqishga xizmat qiladi.

Muhokamaning yana bir muhim jihati — O'zbekistonning ShHT doirasidagi ekologik diplomatiyasidir. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi va cho'llanish jarayonlari insoniyat uchun eng katta xavfga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilgi Samarqand sammitida "ShHT Iqlim kengashi"ni tuzish haqidagi taklifi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholandi. Bu shuni anglatadiki, O'zbekiston ShHTni faqat siyosiy forum emas, balki global ekologik fojialarni, jumladan Orol muammosini hal qilishda xalqaro resurslarni birlashtiruvchi platforma sifatida ko'rmoqda. Olimlar, ekspertlar va biznes vakillarini iqlimiy muammolar atrofida birlashtirish tashabbusi tashkilotning insonparvarlik yo'nalishini yanada mustahkamladi.

Shuningdek, iqtisodiy hamkorlik masalalari ShHTning zamonaviy kun tartibida markaziy o'rin tutadi. Ma'lumotlarda keltirilgan Xitoy-Markaziy Osiyo tabiiy gaz quvuri va boshqa neft quvurlarining foydalanishga topshirilishi mintaqaviy energetik xavfsizlikning kafolatidir. O'zbekiston uchun bu quvurlar nafaqat eksport yo'li, balki mintaqaviy integratsiyaning moddiy asosi hisoblanadi. Transkaspiy va Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo'laklari kabi loyihalarning qo'llab-quvvatlanishi O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishiga va xalqaro bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlashiga xizmat qiladi. Birgina bunga Samarqand shahridagi sammitda ancha ko'plab uchrashuvlar bo'lib o'tdi va keng ko'lamli aloqalar yo'lga qo'yildi. Samarqand 15–16 sentabr kunlari Shanxay Hamkorlik Tashkilotining (SHHT) davlat rahbarlari kengashi majlisiga mezbonlik qildi. Bo'lajak majlis SHHT yetakchilarining 2020 yilda koronavirus pandemiyasi boshlanganidan so'ng o'tgan oxirgi uch yilda birinchi yuzma-yuz uchrashuvi bo'ldi. Sammit ishida SHHTga a'zo mamlakatlar – Pokiston, Rossiya, Tojikiston, Xitoy, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Hindiston, shuningdek, tashkilot huzuridagi kuzatuvchi davlatlar – Belarus, Mo'g'uliston va Eron yetakchilari ishtirok etdi. Faxriy mehmon sifatida Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston va Armaniston, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari taklif etilgan edi. Samarqand sammitining kun tartibiga muvofiq ko'p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari, SHHTni rivojlantirishning amaliy jihatlari va ustuvor vazifalari ko'rib chiqiladi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi. O'zbekiston 2005–2006, 2009–2010 va 2015–2016 yillarda ham SHHTga raislik qilgan. Shu davrda O'zbekiston 54 ta tashabbusni ilgari surib, ularning asosiy qismi amaliyotga joriy qilingan. Bu yilgi O'zbekiston raisligi davrida asosiy e'tibor tashkilot doirasidagi hamkorlikning savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, sanoat kooperatsiyasini ilgari surish, transport-kommunikatsiya o'zaro bog'liqligini kengaytirish,

raqamli transformatsiya va “yashil” iqtisodiyot, shuningdek, SHHTning xalqaro nufuzini mustahkamlash kabi eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga qaratildi.³⁴

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasining Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi ishtiroki shunchaki a‘zolik emas, balki tashkilotning mafkuraviy va amaliy rivojlanishini belgilab beruvchi strategik jarayondir. O‘zbekiston SHHTning asoschi davlatlaridan biri sifatida, dastlab xavfsizlik masalalariga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu hamkorlik ko‘p qirrali xarakter kasb etdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan so‘ng, O‘zbekistonning SHHTdagi faoliyati passiv kuzatuvchilikdan faol tashabbuskorlikka o‘tdi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar tashkilotning iqtisodiy va gumanitar salohiyatini oshirishga qaratildi. 2022-yilda o‘tkazilgan Samarqand sammiti SHHT tarixida yangi sahifa ochdi. Ushbu sammit "Samarqand birdamlik tashabbusi" orqali global muloqot tanqisligini to‘ldirishga xizmat qildi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va SHHT o‘rtasidagi aloqalar bugungi kunda "Mintaqaviy xavfsizlik — iqtisodiy hamkorlik — barqaror rivojlanish" uchligi asosida qurilmoqda. O‘zbekistonning tashabbuslari natijasida SHHT faqatgina xavfsizlik bilan shug‘ullanuvchi tuzilmadan, yirik iqtisodiy blok va madaniy-gumanitar ko‘prikka aylandi. Samarqand sammiti esa O‘zbekistonning nafaqat mintaqaviy, balki global siyosatda ham "konstruktiv muloqot markazi" ekanligini isbotladi. Kelajakda ushbu hamkorlik Markaziy Osiyoning transport-tranzit salohiyatini to‘laqonli yuzaga chiqarish va mintaqaviy yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning asosiy kafolati bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz 9-jild. Toshkent «O‘zbekiston» 2001-yil. 231-bet.
2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi (Bakalavriat bosqichi talabalari uchun) darslik “bookmany print” TOSHKENT – 2023. 207-bet.
3. <https://daryo.uz/2021/09/17/shavkat-mirziyoyev-shht-majlisida-kibermakondagi-tahdidlarga-qarshi-axborot-xavfsizligi-sohasidagi-ekspertlar-forumini-tasis-etishni-ilgari-surdi/>
4. <https://oyina.uz/uz/posts/9992?page=>
5. ¹ <https://sputniknews.uz/samarqanddagi-shht-sammiti---2022/>

³⁴ <https://sputniknews.uz/samarqanddagi-shht-sammiti---2022/>